



**“O‘ZKIMYOSANOAT”
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

BUYRUQ

Toshkent sh.

**“Davlat xaridlari va kontragentlarni
tekshirishga oid ichki me’yoriy
hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son, “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son hamda “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2025-yil 30-dekabrda PF-270-son Farmonlarida belgilangan talablar ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Mazkur hujjatlar ijrosini ta’minlash hamda qonunchilik talablari asosida kiritilgan o‘zgartirishlarni inobatga olgan holda quyidagi ichki me’yoriy hujjatlar qayta tasdiqlansin:

- “O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarini tomonidan xaridlarni amalga oshirish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi nizom 1-ilovaga muvofiq;

- “O‘zkimyosanoat” AJ va uning tarkibiga kiruvchi kopxonalarda kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma 2-ilovaga muvofiq;

2. Ro‘yxatga olish va murojaatlar bilan ishlash bo‘limi (Kodirov) tomonidan mazkur hujjatlarni tegishlilik bo‘yicha mas’ullar va xodimlarga tanishtirish hamda tarmoq korxonalariga o‘z vaqtida yetkazilishi ta’minlansin.

3. Boshqaruv raisi o‘rinbosarlari, departament, boshqarma, xizmat va bo‘lim boshliqlari tomonidan mazkur ichki me’yoriy hujjatlar talablari asosida

ishlar yuritilsin.

4. Davlat xaridlari komissiyalari, xarid qilish, yuridik va korrupsiyaga qarshi bo‘linmalar va mas’ullar (tashabbuskorlar) davlat xaridlarini tashkil etish va o‘tkazish ishlarini mazkur nizom va yo‘riqnoma talablariga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshirilsin.

5. “O‘zkimyosanoat” AJning tarmoq korxonalarini tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish va Davlat xaridlariga oid hujjatlar ushbu buyruq ilovasida ko‘rsatilgan hujjatlarning talablariga to‘liq muvofiqlashtirilsin.

6. Axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligini rivojlantirish boshqarmasi (Axmedov) tomonidan buyruq va ilovalarda ko‘rsatilgan hujjatlar “O‘zkimyosanoat” AJning rasmiy veb-sahifasiga joylashtirilsin.

7. “O‘zkimyosanoat” AJning yagona aksiyadorining 2023-yil 29-dekabrda 199-son buyrug‘ining 1-bandi bilan amaliyotga kiritilgan “Xaridlar siyosati” va 2022-yil 25-noyabrda 184-son buyrug‘ining 1-bandi bilan amaliyotga kiritilgan “O‘zkimyosanoat” AJda kontragentlarni tekshirish yo‘riqnomasi” o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur buyruqning ijro nazoratini o‘z zimamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi



O. Sh. Temirov

Rozilik

**Departament boshlig‘i
o‘rinbosari**



M. E. Kulmetov

**Boshqaruv raisining moliya,
transformatsiya, axborot
texnologiyalari va sun‘iy
intellektni joriy etish hamda
xususiylashtirish masalari
bo‘yicha birinchi o‘rinbosari**



J. I. Mustafayev

Yuridik boshqarmasi boshlig‘i



T. A. Ibadullayev

Bo‘lim ichida rozilik

Boshqarma boshlig‘i



M. A. Mavlyanov

Mas'ul

Bosh mutaxassis



O. M. Yuldashev